



O‘ZBEK TILIDA RASMIY USLUB BIRIKLARINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Xayrullayeva Yulduz Jo‘ra qizi,

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti assistent o‘qituvchisi

xayrullayevayulduz8@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15243803>

Annotatsiya: Ushbu maqolada rasmiy uslubda qo‘llaniluvchi birliklarning pragmatik jihatlari haqida so‘z yuritiladi. Rasmiy uslub birliklari o‘zining qo‘llanish doirasini ma‘naviy chegaralanishi bilan birga ma‘noda aniqlik, obyektiv yondashuv, o‘zaro ijtimoiy masofani saqlash, huquqiy jihatdan kuchga egalik va hissiyotlarni cheklash kabi omillarni qamrab olgan holda boshqa nutq uslublaridan farqlanadi. Shuningdek, bu uslubda ko‘pincha modal ma‘noni ifodalovchi birliklar, passiv strukturaga ega bo‘lgan birikmalar, rasmiy murojaat shakllari ko‘p ishlatiladi. Bu rasmiy uslub birliklari ma‘lum bir mantlarda qo‘llanilganda o‘ziga xos ma‘noni aks ettirish jihatlari pragmatik xususiyatlar orqali aks etiriladi. Bu maqolada rasmiy uslubda ishlatiluvchi birliklarning pragmatik jihatdan ma‘naviy xususiyatlari va ularni qay tarzda matnda to‘g‘ri ishlatish haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: rasmiy uslub, pragmatika, nutq uslublari, obyektiv yondashuv, modal ma‘no, passiv struktura.

Rasmiy uslub birliklari asosan rasmiy nutq sharoitida ishlatiluvchi birliklar hisoblanib, bu birliklar asosan rasmiylik jarayoniga ega bo‘lgan ma‘muriy-huquqiy hujjatlar, qonun, farmon va farmoyishlar, ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar, rasmiy va diplomatik uchrashuvlarda ishlatiluvchi hujjatlarni o‘z ichiga oladi. Pragmatik xususiyatiga ko‘ra bu rasmiy uslub birliklari ma‘no jihatidan aniq va tugal fikrni ifodalashi, uslubiy jihatiga ko‘ra betaraf ya‘ni barcha uchun tushunarli bo‘lishi, ijtimoiy masofani saqlagan holda fikrni ifodalashi, huquqiy kuchga ega bo‘lishi va hissiyotlarni cheklagan holda ma‘lumotlarni obyektiv ifodalashi zarur [7:109].

Bu xususiyatlarning barchasi rasmiy uslub birliklarining pragmatik jihatlari hisoblanib, bu birliklar matnda qo‘llanilganda qanday ma‘no ifodalashi jihatdan o‘ziga xosdir. Rasmiy uslub birliklarining eng muhim xususiyatlaridan biri bu – ma‘lumotlarning aniq, turli shubhalardan holi tarzda ifodalanishidir. Ma‘lumotlarning aniq va barcha uchun tushunarli tarzda bayon etilishi matnning barcha uchun bir tushunchaga ega bo‘lishi va huquqiy va rasmiy jarayonlarda to‘g‘ri tushunilishini ta‘minlaydi.

Shuningdek, rasmiy nutq uslubida qo‘llaniluvchi birliklar o‘z o‘rnida matnda xabar berish, tasdiqlash, buyruq berish, konsens shakllantirish ma‘nolarini ham bildirib keladi. Rasmiy uslubdagi manlarda asosiy ma‘no bu biror yangilik va axborotlar haqida xabar berish ma‘nosiga ega hisoblanadi. Bu maz‘mundagi matnlar asosan hujjatlar, qonun, farmon va farmoyishlarni o‘z ichiga oladi. Masalan:



Mazkur qaror 2025-yilning mart oyidan boshlab kuchga kiradi.

Yuqoridagi misolda fuqorolarga bu qarorning amal qilish vaqti qachon ekanligi haqida xabar berish bilan birga rasmiy uslub birliklari aniq va lo‘nda tarzda ortiqcha hissiy bo‘yoqdor so‘zlardan holi tarzda ifodalangan. Bu esa rasmiy nutq uslubining asosiy xususiyatlaridan biridir.

Ma‘lumot yetkazish ma‘nosi bilan birga rasmiy uslub birliklari buyruq berish ohangiga ega bo‘lgan pragmatik ma‘noga egadir. Davlat ma‘muriy va huquqiy sohalarga doir bo‘lgan buyruqlar, farmon va farmoyishlar, turli normativ hujjatlar o‘z tarkibiga buyruq ohangini oladi. Masalan:

"Barcha xodimlar ushbu nizomga rioya qilishlari shart."

Ushbu misol qonun doirasidagi nizomdan olingan bo‘lib, bu gapni tarkibida barcha ushbu nizomga qat‘iy bo‘ysunishi lozimligi va bu davlat miqyosidagi masala ekanligi ifodalangan. Shuningdek, bu matnga ko‘ra barcha fuqorolar bu nizomni bajarishlari shartligi ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, ba‘zi rasmiy uslub birliklari konsensus ya‘ni tomonlarning huquq va majburiyatlarini ko‘rsatuvchi ifoda birliklarini ham o‘z ichiga oladi. Masalan:

"Tomonlar ushbu shartnoma shartlariga muvofiq o‘z majburiyatlarini bajarishga majburdirlar"

Ushbu misolda pragmatik jihatdan shartnoma tuzayotgan har ikkala tomon ham belgilangan majburiyatlarni bajarishi lozimligi ifodalash bilan birga bu qonun qoidalarni buzish mumkun emasligi haqida xabar ma‘nosini ham ifodalagan.

Yuqoridagi pragmatik ma‘nolar bilan birga rasmiy uslub birliklari tasdiq ma‘nosida ham ishlatiladi. Masalan:

2024-yil1-aprelda giyohvandlikni kamaytirish haqida turli qonunlar qabul qilindi.

Turli daliliy ma‘lumotlarga ko‘ra giyohvandlar sonini kamaytirish haqida qonunni tasdiqlaydi. Shu bilan birga, pragmatik jihatdan rasmiy uslub birliklari va‘da ma‘nosida ham qo‘llanilishi mumkun. Masalan:

Keltirilgan qonunning ijrosi 2025-yilning 25-mart sanasigacha amalga oshiladi.

Pragmatik jihatdan rasmiy uslub birliklari amalga oshirilishi kelajakka yo‘naltirilgan ma‘noda ishlatilgan.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda, A. Rasulova va A.Shodiyevalarning fikriga ko‘ra pragmatik jihatdan rasmiy uslub birliklari quyidagi janrlarga ajratish mumkun:

1. Axborotning presuppozitsion janr shakli;
2. Axborotning propozitsional janr shakli;
3. Axborotning tag ma‘no janr shakli [7:109].



Tilshunoslikka presuppozitsiya janri haqida ilk ma'lumotlar nemis mantiqshunosi G.Frege nomi bilan bog'liq bo'lib, Unga ko'ra, presuppozitsiya hukmning mantiqiy asosi hisoblanadi" [4:404]. Presuppozitsiya hodisa bu – oldingi ma'lumotlarga tayangan holda hukm chiqarishdir. Presuppozitsiyaga misol sifatida *Navoiy turkey tillarga oid muhim manbalarni yaratgan buyuk shoir bo'lgan* misolini oladigan bo'lsak, bunda o'tmishda Navoiy ismli shoir yashab o'tganligini presuppozitsiya ya'niki ma'lumotlarga tayangan holda ma'lum tahminlarga kelishdir. Tilshunoslikka Presuppozitsiya terminini kiritgan olim esa P.Strososon hisoblanadi. U ham bu atamani G.Frege bilan bir xil talqin qilgan. Demak, Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda presuppozitsiya ma'lum matn ifodalayotgan propozitsiyaning to'g'ri tushunilishiga imkon beradigan so'zlovchilar o'rtasidagi "bilimning umumiy fondi", "oldindab bilishning jami" sifatida belgilanadi [6:28].

Tilshunos olim M.Hakimov ta'kidlaganidek " *..ma'lum bir matnning to'liq ma'noviy jihatini ochib berish uchun birgina presuppozitsiya hodisasi kamlik qiladi. Matnning so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi munosabatining yashirin jihatlarini ochib berishda tagma'no ham muhim ahamiyatga egadir. Shuningdek, ba'zan tinglovchi va so'zlovchi munosabatlaridagi tagma'no ko'pincha yashirin tarzda amalga oshirilganligi tufayli ma'noni to'raligicha angalashilishi uchun bizga propozitsiyalarning mantiqiy tahlili kerak bo'ladi. Bu uch janr bir birini to'ldirib keladi*" [2:112].

Presuppozitsiya jarayoni rasmiy uslub birliklarini rasmiylikni ifoda etishda asosiy o'rinni egallagan aniq,qisqa va ixcham ma'lumotlar bilan ta'minlashga xizmat qiladi. Ammo, bugungi rivojlangan davrda qisqa ma'lumotlarning ham tagma'noga ega ekanligi barchamizga ma'lumdir. Fikrimizni jamoat joylarida ko'p uchratishimiz mumkun bo'lgan, *Begonalar kirishi ta'qiqlanadi* gapini tahlil qilish bilan isbotlasak. Bu gap bugungi kunda odat tusiga kirgan jumla bo'lib, ko'pchilik jamoat joylari, ovqatlanish va salomatlik markazlarida ishlatiladi. Bu jumladan ifodalanyotgan asosiy propozitsiya begona shaxslarning bu hududga kirishi mumkin emasligi bo'lsa, gap strukturasi va uslub talabi jihatidan yondashsak, "Bu yer faqat ishchilar uchun joy" degan ikkilamchi axborotni anglashimiz mumkin. Bundan anglashiladiki, boshqa uslublar singari rasmiy uslub birliklari ham o'z o'rnida presuppozitsiya, propozitsional va tag ma'nosiga ega bo'lib, nutqda tinglovchiga aniq bir tushunchani yetkazib berishda bu uch janrning o'rni beqiyosdir.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, har bir nutq uslubi o'ziga xos bo'lgan til birliklariga ega bo'lib, ularning har biri nutqiy vaziyat, qo'llanishi doirasi va vaqtiga ko'ra farqlanadi. Bu uslublardan qay holda va qanday tarzda qo'llash

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



so‘zlovchining o‘ziga bog‘liq. Rasmiy uslubda qo‘llaniluvchi birliklar ham matnning maqsadiga ko‘ra turlicha ma’nolarni kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Арутюнова Н.Д. Предложение и смысл. М., 1976, с.50.
2. Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: “Akademnashr”,2013. – 155-бет.
3. Лингвистический энциклопедический словарь. М., 1990, с.401.
4. Нурмонов А. Танланган асарлар. I жилд. – Тошкент: “Akademnashr”, 2012. – 404-бет.
5. Нурмонов А. ва бошқалар. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. - Тошкент, 1992. - 28-бет.
6. Махмудов Н. Пресуппозиция ва гап // ЎТА. 1986. №6
7. Rasulova A. Shodiyeva A. Rasmiy nutqda presuppozitsiyaning ifodalanishi. Образование и инновационные исследования .2023. – 109-бет.
8. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008.